

OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH

Tursunova Dilnavoz Davron qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimlashtirilgan. Oziq-ovqat sanoatining global va mahalliy miqyosda rivojlanishiga ta'sir qiluvchi innovatsiyalar, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, iste'molchilar talabining o'zgarishi, resurslar va ekologik omillar ta'siri o'rganilgan. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga turli omillar ta'sirini baholagan holda mazkur tarmoqni rivojlantirish strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, rivojlanish omillari, iqtisodiy omillar, texnologik innovatsiyalar, ijtimoiy o'zgarishlar, ekologik ta'sir, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье систематизированы внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие пищевой промышленности. Исследовано влияние инноваций, изменений на рынке труда, трансформации потребительского спроса, ресурсов и экологических факторов на развитие пищевой промышленности как в глобальном, так и в локальном масштабе. Оценено воздействие различных факторов на отрасль, предложены стратегические рекомендации по развитию данного сектора.

Ключевые слова: пищевая промышленность, факторы развития, экономические факторы, технологические инновации, социальные изменения, экологическое воздействие, конкурентоспособность.

Abstract

This article systematizes internal and external factors influencing the development of the food industry. It examines the impact of innovations, labor market changes, shifts in consumer demand, resources, and environmental factors on the development of the food industry at both global and local levels. The influence of various factors on the industry is assessed, and strategic recommendations for advancing the sector are provided.

Keywords: food industry, development factors, economic factors, technological innovations, social changes, environmental impact, competitiveness.

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda ham katta

ahamiyatga ega. Nafaqat O‘zbekiston Respublikasida, balki butun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini to‘liq ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash muhim vazifaga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-sonli “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish va aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 18-martdagi PQ-4643-sonli “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish strategiyasi”da [1] va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda: zarur miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish mexanizmlarini takomillashtirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va qiymat zanjirini rivojlantirish, shu jumladan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga asoslangan oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish; yangi qayta ishlash korxonalarini qurish va modernizatsiya qilish; oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va sotish uchun logistika tarmoqlarini kengaytirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mazkur jihatlarni inobatga olganda, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga omillar ta‘sirini baholash orqali strategik yo‘nalishlar belgilash muhim tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga turli omillar ta‘sirini baholash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar, maqolalar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu adabiyotlar sanoatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik jihatlarini o‘rganadi, shuningdek, uning global va mahalliy miqyosda qanday rivojlanayotganini tahlil qiladi. Ishlab chiqarish-sanoat zanjirida integratsiyalashgan aloqalarni rivojlantirish asosida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilgan.

Kurkina N.R. tomonidan aholining oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta‘minlash muhim strategik vazifadir, chunki u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligi, balki milliy xavfsizlik bilan ham chambarchas bog‘liq degan xulosaga kelingan¹ [2].

¹ Куркина Н.Р., (2010). Организационно-экономический механизм развития продовольственного обеспечения (теория, методология, практика) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством. Москва-2010. С. 3.

N.I. Saidaxmedova tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoatining eng muhim muammolaridan biri qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasining pastligi ekanligi aniqlangan¹ [3].

N.V. Kandaurova integratsiya jarayonlarini rivojlantirish tajribasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarni birlashtiruvchi yaxlit tuzilmalar samaraliroq va bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va sanoatda qayta ishlash zanjirida oziq-ovqat tarmog‘ini rivojlantirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan² [4].

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda sanoatning raqobatbardoshligi va o‘sishi ko‘pincha iqtisodiy siyosat, investitsiyalar va moliyaviy resurslar bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Xorijiy tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoati uchun davlat subsidiyalari va moliyaviy yordamlarning rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotlarda iqtisodiy inqirozlar va o‘sinh sur’ati o‘rtasidagi bog‘liqlik keng muhokama qilinadi.

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida ijtimoiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Oziq-ovqat iste’molchilari talablari va odatlari o‘zgarib boradi, bu esa sanoatga yangi mahsulotlar ishlab chiqishda va marketing strategiyalarini ishlab chiqishda katta ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoatning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalar va ekologik barqarorlikka e’tibor qaratish zarur.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish uchun bir qator ilmiy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida oziq-ovqat sanoati rivojlanishiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar va ma’lumotlar tahlil qilindi. Bu yondashuv sohaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini, shuningdek, rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi. SWOT tahlili asosida sanoatning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlari baholandi. Ushbu yondashuv oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy samaradorligini baholash va asosiy muammolarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot metodologiyasining turli usullarni uyg‘unlashtirishga asoslanishi oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning nazariy asoslarini kompleks tahlil qilish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda yuqori natijalarga erishishni ta’minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

¹ Саидрахмедова Н.И., (2019). Тенденции и проблемы производства в пищевой промышленности Узбекистана // Научно электронный журнал 34 SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM “Международные финансы и учет”. № 2, апрель, 2019 г. – с. 7 (на узбекском языке).

² Кандаурова Н.В., (2005). Организационно-экономические основы интеграции сельскохозяйственных и промышленных предприятий // Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н.

Tadqiqot davomida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi va ushbu omillar ikki guruhga — ichki va tashqi omillarga bo'lindi. Unga ko'ra, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar quyidagicha tasniflanadi:

Ichki omillar (sanoat ichidagi omillar):

1. Xomashyo bazasi: Mahalliy xomashyolarning sifati va hajmi (masalan, g'alla, sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari) hamda qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi.

2. Texnologik rivojlanish: Yangi ishlab chiqarish uskunalari va avtomatlashtirish darajasi, innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi.

3. Mehnat resurslari: Malakali ishchi kuchining mavjudligi, ishchilarning tajribasi va kasbiy tayyorgarligi.

4. Menejment va boshqaruv: Korxonadagi boshqaruv tizimining samaradorligi, strategik rejalashtirish va marketing yondashuvlari.

5. Ichki bozor talabi: Aholining daromad darajasi, iste'mol madaniyati va mahalliy iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan ehtiyoji.

Tashqi omillar (tashqi muhitdagi omillar):

1. Iqlim va geografik sharoitlar: Oziq-ovqat ishlab chiqarishga mos iqlim va yer resurslari.

2. Davlat siyosati va qonunchilik: Subsidiyalar, soliq imtiyozlari, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat xavfsizligi va sifat nazorati standartlari.

3. Raqobat va global bozorlar: Mahalliy va xalqaro raqobatchilar, eksport va import sharoitlari, bojxona to'siqlari.


4. Transport va logistika: Mahsulotlarni tez va xavfsiz yetkazib berish imkoniyatlari va infratuzilmaning rivojlanganligi.

5. Texnologik taraqqiyot (global darajada): Jahon bo'yicha oziq-ovqat texnologiyasidagi yangiliklar.

6. Demografik omillar: Aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya va iste'molchilarning yosh tarkibi (1-rasm).

O'zbekistonda agrar sektor rivojlangan bo'lib, turli xil meva-sabzavot, g'alla, go'sht va sut mahsulotlari yetishtiriladi. Ammo, xomashyoning saqlanishi va qayta ishlanishi tizimlari doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanib borishi talab etiladi. Ko'p xomashyo xom holatda eksport qilinadi, bu esa ichki qayta ishlash sanoatini cheklaydi. Xomashyo manbalari ko'p bo'lsa-da, ulardan samarali foydalanilmasligi sanoatni yanada kengroq rivojiga to'sqinlik qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llash esa mazkur muammolarni samarali yechimi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali mahsulot

sifatini, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni guruhlash¹

Texnologik modernizatsiya — bu sohaning “yuragi” bo‘lib, korxonalarining yuqori e’tibor qaratishi kerak bo‘lgan eng muhim yo‘nalishdir. Mamlakatda ishchi kuchining salmog‘i yuqori bo‘lsa-da, malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar yuqori hisoblanadi. Yuqori ilm talab qiluvchi sohalarda kasbiy ta’lim va malaka oshirish muhim yo‘nalish bo‘lib, inson resurslarini rivojlantirish talab etiladi.

Ko‘plab korxonalar faoliyatida strategik rejalashtirish va marketing jarayonlari yetarli darajada shakllanmagan. Mahsulot ishlab chiqarish bosqichi mavjud bo‘lsa-da,

¹ Muallif ishlanmasi

uni samarali sotish va brendni rivojlantirish jarayonlari takomillashtirilishi zarur. Zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy etish korxonalarni bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Aholi sonining barqaror o'sib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, mahalliy iste'molchilarning sifatga bo'lgan talablari ham sezilarli darajada oshmoqda. Bunday sharoitda ayrim mahsulotlar import orqali qoplanmoqda. Bu esa ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Ichki bozorni yetarli darajada ta'minlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining agroiklimiy sharoiti meva-sabzavot, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi kabi omillar dehqonchilikka muayyan salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur vaziyatda iqlim resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish zarurati dolzarb bo'lib bormoqda.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozlar, subsidiyalar, grantlar hamda investitsion mexanizmlar keng joriy etilmoqda. Biroq, ayrim holatlarda tartibga solishdagi murakkabliklar va ma'muriy to'siqlar samarali faoliyat yuritishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat siyosatining barqarorligi, normativ-huquqiy bazaning soddaligi va investitsion muhitning barqarorligi xorijiy va mahalliy investorlar uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar Xitoy, Turkiya, Rossiya kabi davlatlardan olib kirilayotgan mahsulotlar bilan raqobat muhitida faoliyat yuritmoqda. Eksport salohiyatini oshirish uchun mahsulot sifatini yaxshilash, xalqaro standartlarga moslashtirish va zarur sertifikatlash tizimlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ichki logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda rivojlanmaganligi, ayniqsa tez buziladigan mahsulotlar uchun zarur bo'lgan sovuq zanjir (cold chain) tizimining yetarli emasligi mahsulotni iste'molchiga sifatli yetkazib berishda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Samarali logistika tizimi esa ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Aholi sonining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy ehtiyojni ta'minlaydi. Aholi tarkibida yoshlarning ulushi yuqoriligi esa fast food, funksional ichimliklar va sog'lom ovqatlanish mahsulotlari kabi yangi mahsulot turlariga talabni oshirmoqda. Bozorni ehtiyojga qarab segmentlashtirish va mos mahsulotlar ishlab chiqarish orqali ichki talabni to'liq qondirish mumkin.

Jahon oziq-ovqat sanoatida robototexnika, sun'iy intellekt va ekologik texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston korxonalarida esa bu texnologiyalarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda. Innovatsion rivojlanishdan ortda qolmaslik uchun xalqaro hamkorlikni kengaytirish, texnologik transferlarni yo'lga qo'yish va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2012–2024-yillarda oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki sanoatining ulushi sanoatda 18,3 % dan 13,8 % ga yoki 4,5 % ga kamaygan. Oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'ati 4,7 % dan 5,4 % ga yoki 0,7 % punktga oshdi. Bu davrda jismoniy jihatdan sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish 77,4 % ga, pishloq va sut mahsulotlari 134,2 % ga, kolbasa mahsulotlari 103,7 % ga, shakar 103,5 % ga, makaron mahsulotlari 18,5 % ga, un 78,5 % ga, qandolat mahsulotlari 232,1 % ga oshdi. Faqat non va non mahsulotlari (9,7 %) va o'simlik moyi (59,2 %) ishlab chiqarish kamaygan (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatining rivojlanish dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	O'lchov birlik	2012	2014	2016	2018	2020	2022	2024
Oziq-ovqat mahsulotlari sanoat ishlab chiqarishi tarkibida ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi	%	18,3	20,4	23,9	13,5	14	13,8	18,2
Ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati	%	104,7	109,1	108,2	100,9	107,9	105,4	106,3
Asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini fizik jihatdan ishlab chiqarish								
Go'sht va go'sht mahsulotlari	Ming t	198,5	221,1	287,2	244,3	189,9	213,0	225,6
Sut va sut mahsulotlari	Ming t	319,0	375,1	546,3	558,2	589,7	566,0	586,0
Sir va brinza	Ming t	3,8	5,7	11,6	9,0	10,3	8,9	8,2
Kolbasa mahsulotlari	Ming t	18,9	27,3	43,5	29,2	38,1	38,5	39,0
O'simlik yog'i	Ming t	236,0	230,0	223,6	209,8	181,9	96,3	73,0
Shakar	Ming t	323,1	425,5	535,0	68,8	188,8	203,5	492,1
Makaron	Ming t	77,3	93,0	125,0	110,2	121,7	91,6	93,9
Non va non mahsulotlari	Ming t	1062,0	1084,5	1575,3	1473,9	1404,9	970,1	1023,5
Un	Ming t	1820,3	1979,3	2268,2	2733,5	3509,6	3250,1	3345,5
Qandolat mahsulotlari	Ming t	43,6	59,2	141,5	120,5	129,7	144,4	136,5

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Mavjud imkoniyatlarga qaramay, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati rivojlanishining hozirgi bosqichi hali to‘laqonli emas. Ushbu soha tarkibida qayta ishlash quvvatlarining yetarli emasligi, texnologik parklarning kamligi va zamonaviy standartlarga mos ishlab chiqarish liniyalarining yetarlicha joriy etilmaganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Natijada, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi umumiy ishlab chiqarish hajmida past darajada bo‘lib qolmoqda.

Mazkur yo‘nalishda tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va xalqaro sifat standartlariga mos ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali sohaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkoniyatlari mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish va aholining hayot sifati yaxshilanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari so‘nggi yillarda oziq-ovqat sanoatida ijobiy o‘zgarish sur‘atlari kuzatilayotganini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining yildan-yilga oshib borayotgani, xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi hamda kichik va o‘rta biznes subyektlari sonining ko‘payishi ushbu tarmoqning yuqori salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi muhim omillarni ichki va tashqi jihatdan quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Ichki omillar: Eng asosiy ichki omil — bu xomashyo bazasining mavjudligidir. O‘zbekiston agrar mamlakat sifatida boy qishloq xo‘jaligi resurslariga ega. Biroq, mavjud xomashyoni sifatli saqlash, qayta ishlash va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga aylantirish bo‘yicha infratuzilma imkoniyatlari hali to‘liq shakllanmagan. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sezilarli qismi eksport qilinmoqda, bu esa ichki sanoatda xomashyo resurslaridan to‘laqonli foydalanilmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Tashqi omillar: Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida davlat siyosati va qonunchilik muhim tashqi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilgan turli qo‘llab-quvvatlov choralari — subsidiya, soliq imtiyozlari, investitsion rag‘batlar va eksportni kengaytirish bo‘yicha mexanizmlar joriy etilgan. Shunga qaramay, ayrim ma‘muriy jarayonlarning murakkabligi, litsenziyalashdagi byurokratik to‘siqlar va normativ-huquqiy bazaning qisman murakkabligi tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirishga to‘siq bo‘lmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati yuksak istiqbolga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning kompleks rivojlanishini ta‘minlash

uchun xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, logistikani takomillashtirish hamda normativ-huquqiy tartiblarni soddalashtirish kabi yoʻnalishlarda tizimli islohotlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar natijasida Oʻzbekiston oziq-ovqat sanoati xalqaro bozorlarda raqobatbardosh pozitsiyani egallashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son ““Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

2. Куркина Н.Р., (2010). Организационно-экономический механизм развития продовольственного обеспечения (теория, методология, практика) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством. Москва-2010. С. 3.

3. Саидахмедова Н.И., (2019). Тенденции и проблемы производства в пищевой промышленности Узбекистана // Научно электронный журнал 34 SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM “Международные финансы и учет”. № 2, апрель, 2019 г. – с. 7 (на узбекском языке).

4. Кандаурова Н.В., (2005). Организационно-экономические основы интеграции сельскохозяйственных и промышленных предприятий // Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н.

5. Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT ISSN (electronic): 2620 — 6269/ ISSN (printed): 2615 – 4021 Vol. 5 No. 1 | January 2023. P. 38-52.

6. Судакова Е.С. Оценка трудового потенциала персонала: подходы, методы, методика / Е.С. Судакова // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ».- 2014.- Выпуск №4.-С.1- 26.

7. Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. — Т.: ТМИ. 2005. — 114 б.

8. Искандаров Э.Б., “Ўзбекистон қурилиш саноати корхоналарида барқарор инновацион ривожланишни таъминлаш” мавзусидаги 08.00.03-Саноат иқтисодиёти ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2022 й. б-13.

9. Азларова М.М. Иқтисодиётнинг глобаллашув шароитида ички бозорни озиқовқат товарлари билан тўлдиришнинг назарий асослари // Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-son.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**